BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA IZOHLI LUG'ATLARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibrohimova Shoxistaxon Nodirbek qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi 1-kurs magistranti, oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi
E-mail: shirinshirinzabonim@gmail.com
Ilmiy rahbar: Djakbarova Mahliyo Ibroximjonovna
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim va innovatsiyalar kafedrasi kata o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini shakllantirishda izohli lug'atning ahamiyati va undan foydalanish zarurati 2023-yilda nashr etilgan 4-sinf «Ona tili» darsligi misolida yoritilgan. Darslikning to'rt qismida lug'atcha ham, so'zlarga sahifa osti izohi ham berilmagani, 502 ta mashqdan birortasi o'quvchini izohli lug'atga yo'naltirmasligi aniqlandi. Izoh talab qiladigan so'zlar yetti guruhga ajratilib, har biriga mos lug'at turi ko'rsatildi. «Karchlamoq» so'zi misolida umumiy izohli lug'at maqolasi o'quvchidan qanday amallarni talab qilishi tahlil qilinib, izohli lug'at bilan ishlash bosqichlari va amaliy tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar: *nutq, izohli lug'at, lug'at ishi, so'z ma'nosi, nofaol so'zlar, bolabop izoh, «Ona tili» darsligi, boshlang'ich ta'lim.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье на материале учебника «Ona tili» («Родной язык») для 4 класса, изданного в 2023 году, раскрываются значение толкового словаря в формировании речи младших школьников и необходимость его использования. Установлено, что в четырёх частях учебника нет ни словарика, ни подстрочных толкований слов, а ни одно из 502 упражнений не направляет ученика к толковому словарю. Слова, требующие толкования, распределены по семи группам, для каждой указан подходящий тип словаря. На примере слова «karchlamoq» проанализировано, каких действий требует от ученика статья общего толкового словаря; предложены этапы работы со словарём и практические рекомендации.*

Ключевые слова: *речь, толковый словарь, словарная работа, значение слова, пассивная лексика, доступное толкование, учебник «Ona tili», начальное образование.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING EXPLANATORY DICTIONARIES IN DEVELOPING THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL PUPILS

Abstract. *Based on the Grade 4 "Ona tili" (Mother Tongue) textbook published in 2023, the article discusses the importance of the explanatory dictionary for developing primary pupils' speech and the need to use it in class. The four parts of the textbook contain neither a glossary nor footnote glosses, and none of the 502 exercises refers pupils to an explanatory dictionary. Words requiring explanation are divided into seven groups, each matched with a suitable type of dictionary. Using the word "karchlamoq" as an example, the article analyses what an entry in a general explanatory dictionary demands of a pupil and proposes stages of dictionary work and practical recommendations.*

Keywords: *speech, explanatory dictionary, vocabulary work, word meaning, passive vocabulary, child-friendly definition, "Ona tili" textbook, primary education.*

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchisi nutqining boyligi faqat u bilgan so'zlar soni bilan emas, shu so'zlar ma'nosini qanchalik to'g'ri anglashi bilan ham belgilanadi. Ma'nosi anglanmagan so'z, odatda, o'quvchining faol nutqiga o'tmaydi: u matnda o'qib o'tiladi, daftarga ko'chiriladi, lekin og'zaki javobda ham, yozma ishda ham ishlatilmaydi. Shu bois so'z ma'nosini aniqlashga o'rgatish nutq o'stirishning ajralmas qismi, izohli lug'at esa bu ishning eng ishonchli vositalaridan biridir.

Davlat tili siyosatida ham lug'atlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiyada o'quv leksikografiyasini rivojlantirish, yangi avlod o'quv lug'atlarini va ularning elektron variantlarini yaratish vazifalari belgilangan [1]. Bugun o'qituvchi ixtiyorida besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» [2], boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tuzilgan «So'z sandiqchasi» lug'atchasi [3] va elektron lug'atlar bor. Ammo lug'atning mavjudligi undan darsda foydalanilishini hali kafolatlamaydi.

Masalaning yana bir tomoni darslik bilan bog'liq. Darslik matnlarida o'quvchi uchun notanish, eskirgan yoki ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar uchraydi, topshiriqlarda esa «so'zning ma'nosini tushuntiring», «izohlang» kabi ko'rsatmalar beriladi. Ma'noni qayerdan va qanday aniqlash aytilmasa, so'z izohi butunlay o'qituvchiga qoladi, o'quvchi esa so'z ustida mustaqil ishlashga o'rganmaydi.

Maqolaning maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini shakllantirishda izohli lug‘atning ahamiyati va undan foydalanish zaruratini 2023-yilgi 4-sinf «Ona tili» darsligi materiali asosida asoslash hamda lug‘at bilan ishlashni tashkil etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Lug‘at ishining nutq o‘stirishdagi o‘rni metodik adabiyotlarda keng yoritilgan. M.R. Lvov, V.G. Goretskiy va O.V. Sosnovskaya boy va faol lug‘at zaxirasini nutq madaniyatining zaruriy sharti deb hisoblaydi [4; 11]. Mualliflar boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish ishini darajalarga ajratib, lug‘at ishini talaffuz darajasidan keyin keladigan leksik daraja sifatida alohida ko‘rib chiqadi [4; 290–300]. Demak, so‘z ustidagi ish nutq o‘stirishning yordamchi emas, tayanch bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi.

M. Djakbarova boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishni lingvodidaktik muammo sifatida tahlil qilar ekan, til o‘rgatish grammatika va lug‘atni o‘rgatish bilangina cheklanmasligini, u o‘quvchining fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozimligini ta’kidlaydi [5; 329]. Muallif N. Jo‘rayevaga tayanib, nutq o‘stirish boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin tutishini, biroq u til fanining boshqa bo‘limlari bilan bog‘langan holda shakllantirilishini qayd etadi [5; 328]. Bu fikr biz uchun muhim: quyida ko‘rsatilganidek, darslikdagi izoh talab qiladigan so‘zlarning ko‘pi grammatik mavzudagi mashqlarda uchraydi, demak, lug‘at ishini grammatika darsidan ajratib bo‘lmaydi.

O‘zbek leksikografiyasida o‘quvchi uchun zarur lug‘atlarning asosiy turlari yaratilgan. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» adabiy til so‘zlarining ma’nolari, uslubiy belgilari va qo‘llanish misollarini beruvchi me’yoriy manbadir [2]. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»da so‘zlar ma’nodoshlik qatorlarida izohlanadi [6]: notanish so‘zni tanish ma’nodoshi orqali tushunish va fikrni ifodalash uchun eng o‘rinli so‘zni tanlashni bunday lug‘at yordamida o‘rgatish qulay. Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» iboralarni yaxlit birlik sifatida izohlaydi [7]. Iboraning ma’nosi ko‘p hollarda uning tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan kelib chiqmagani uchun bunday lug‘at o‘quvchiga ayniqsa zarur. N. Mahmudovning «So‘z sandiqchasi» lug‘atchasi esa bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan: unda yetti yuzga yaqin so‘zning sodda va ixcham izohi bolalar adabiyoti, matbuot va xalq og‘zaki ijodidan olingan misollar bilan berilgan [3].

Mavzuga yaqin so‘nggi tadqiqotlardan biri – K. Saidovaning nofaol so‘zlar o‘quv lug‘atiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi. Tadqiqotchi nofaol so‘zni o‘qilganda yoki eshitilganda tushuniladigan, ammo og‘zaki va yozma nutqda kam qo‘llanadigan so‘z sifatida tavsiflaydi va bu qatlamga eskirgan, shevaga xos, yangi o‘zlashgan so‘zlar

hamda maxsus atamalarni kiritadi [8; 22]. Uning fikricha, o‘quv lug‘atidagi izoh aniq, ixcham, grammatik jihatdan mos va mazmunan bog‘langan bo‘lishi kerak, bolalar lug‘atlari esa ko‘proq rangli rasm va grafik ta’riflarga tayanadi [8; 19–20].

Ko‘rib chiqilgan manbalar lug‘at ishining nutq o‘stirishdagi o‘rnini va o‘quv lug‘atlariga qo‘yiladigan talablarni asoslab beradi. Ammo amaldagi 4-sinf «Ona tili» darsligi o‘quvchini lug‘atga qay darajada yo‘naltirishi va darslik matnlaridagi qaysi so‘zlar lug‘at yordamini talab qilishi alohida o‘rganilmagan. Maqolada shu savollarga javob izlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiali – umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun «Ona tili» darsligining 2023-yilgi nashri, I–IV qismlar [9]. Darslik kontent-tahlil qilinib, undagi lug‘at apparati (lug‘atcha, sahifa osti izohi), «lug‘at» so‘zi qatnashgan topshiriqlar va so‘z ma’nosini tushuntirishni talab qiluvchi topshiriqlar aniqlandi. Matnlardagi so‘zlar eskirganlik, kitobiylik, ko‘chma ma’noda qo‘llanish, ko‘p ma’nolilik, iboraviylik, tor doirada qo‘llanish hamda atama yoki yangi o‘zlashma bo‘lish belgilariga ko‘ra ajratildi; bu ro‘yxat to‘liq sanoq emas, tipologik tanlanmadir. Tanlangan so‘zlarning izohlari elektron izohli lug‘at [10] bo‘yicha tekshirilib, 4-sinf o‘quvchisi uchun tushunarliligi jihatidan tahlil qilindi. Maqola nazariy-tahliliy xususiyatga ega, unda tajriba-sinov natijalari keltirilmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Darslikda so‘z ma’nosi bilan ishlash tayanchlari.

Darslikning to‘rt qismida jami 502 ta mashq bor. Ulardagi lug‘at bilan ishlashga aloqador tayanchlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

4-sinf «Ona tili» darsligida (2023) so‘z ma’nosi bilan ishlash tayanchlari

Ko‘rsatkich	I qism	II qism	III qism	IV qism
Mashqlar soni	148	104	139	111
Lug‘atcha	yo‘q	yo‘q	yo‘q	yo‘q
So‘zga sahifa osti izohi	yo‘q	yo‘q	yo‘q	yo‘q
«Lug‘at» so‘zi qatnashgan topshiriq	14-mashq	yo‘q	yo‘q	yo‘q
Ma’no tushuntirishni so‘ragan topshiriqlar (misollar)	7, 14, 85, 87, 108, 127	38, 88	25, 30	5, 13, 30, 40

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, darslikda maxsus lug‘at apparati yo‘q. So‘z izohi vazifasini bajaradigan gaplar faqat ayrim ma’rifiy matnlarning ichida uchraydi, masalan: «Globusning o‘rtasidagi chiziq ekvator chizig‘i deyiladi» (I qism, 29-mashq), «Usturlob – yulduzlar joylashuv gradusini aniqlash uchun yaratilgan uskuna» (IV qism, 8-mavzu) [9]. Bunday gaplar so‘zni bir gapda, vazifasi yoki belgisi orqali tushuntiradi va bolabop izohga namuna bo‘la oladi, biroq ular matn mazmunining bir qismi bo‘lib, lug‘at apparati o‘rnini bosmaydi. «Lug‘at» so‘zi esa topshiriqlarda bir marta – I qismning 14-mashqida qo‘llangan: «Yozganlaringizni lug‘atdan tekshiring. Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang» [9]. Mashq tushirib qoldirilgan harflarni tiklashga qaratilgani uchun bu yerda imlo lug‘ati nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin, ma’noni izohlash uchun esa vosita ko‘rsatilmagan. Holbuki, darslikning II va III qismlari so‘zboshisida o‘quvchilarning «nutq va lug‘at boyligini» o‘stirish maqsadi alohida aytilgan [9].

Ma’no tushuntirishni so‘ragan topshiriqlar har bir qismda bor: «Hakim so‘zining ma’nosini tushuntiring» (I qism, 108-mashq), «Bir xil shakldagi so‘zlarning ma’nosini izohlang» (II qism, 88-mashq), «Iboralarning ma’nosini tushuntiring» (IV qism, 40-mashq) [9]. Ularda ma’noni matndan, lug‘atdan yoki o‘qituvchidan aniqlash kerakligi aytilmaydi, natijada so‘z izohini tashkil etish to‘liq o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Shu bilan birga, darslikdagi ma’nodosh, zid ma’noli va shakldosh so‘zlar, o‘z va ko‘chma ma’no mavzulari izohli lug‘at bilan ishlashni joriy etish uchun tayyor tayanch bo‘la oladi.

Izoh talab qiladigan so‘zlar va ularga mos lug‘atlar.

Yuqoridagi belgilar asosida ajratilgan so‘zlar yetti guruhga birlashtirildi (2-jadval). Jadvalning uchinchi ustunida har bir guruh uchun mos lug‘at ko‘rsatilgan.

2-jadval

Darslikdagi izoh talab qiladigan so‘zlar va ularga mos lug‘atlar

So‘z guruhi	**Darslikdan misollar (qism, mashq)**	**Mos lug‘at**
1. Tarixiy va eskirgan so‘zlar	navkar (I, 14); hakim (I, 108); mirob (II, 85); najjor (III, 96); usturlob (IV, 8-mavzu)	izohli lug‘at [2], eskirgan so‘zlar lug‘ati
2. Kitobiy, mavhum ma’noli so‘zlar	saodat, barhayot (I, 2); tabarruk (I, 27); iqbol (II, 55); zilol (III, 5); halovat (IV, 27)	sinonimlar lug‘ati [6]
3. Ko‘chma ma’noli birikmalar	«oq libosga burkangan» (III, 6); «g‘urur ostonasidan» (II, 61)	izohli lug‘at [2]

So‘z guruhi	Darslikdan misollar (qism, mashq)	Mos lug‘at
4. Ko‘p ma’noli va shakldosh so‘zlar	olma, chang, tut (I, 87); yoz, uch (II, 88)	izohli lug‘at [2]
5. Iboralar	«ayilday botdi», «pisanda qilmoq» (IV, 40)	frazeologik lug‘at [7]
6. Maishiy, tor doirada qo‘llanadigan so‘zlar	karchlamoq (I, 138); baxshi (III, 60); qatqaloq (IV, 51)	izohli lug‘at [2], rasm
7. Atamalar va yangi o‘zlashmalar	gerb (I, 72); sanatoriya (II, 54); evkalipt (III, 133); tashxis (IV, 27)	bolalar lug‘ati [3], rasm, sxema

Guruhlash shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchiga bitta lug‘at yetmaydi: eskirgan so‘z uchun izohli yoki eskirgan so‘zlar lug‘ati, kitobiy so‘z uchun sinonimlar lug‘ati, ibora uchun frazeologik lug‘at kerak bo‘ladi. Ayrim hollarda darslikning o‘zi izohlash yo‘lini ko‘rsatadi: II qismning 85-mashqida «mirob» so‘zi «suvchi» so‘zi bilan birga berilib, o‘quvchidan ma’nodoshlarni topish so‘ralgan [9]. Bu notanish so‘zni tanish ma’nodoshi orqali tushuntirishning, ya’ni sinonimlar lug‘ati tamoyilining darslikdagi kichik ko‘rinishidir. Izoh talab qiladigan so‘zlarning aksariyati grammatik mavzudagi mashqlar matnida keladi. Dars maqsadi grammatik bo‘lgani uchun ular e’tibordan chetda qolishi mumkin, holbuki matnni tushunmay turib grammatik topshiriqni ham ongli bajarib bo‘lmaydi. K. Saidova nofaol so‘zlarning asosiy belgisi sifatida ularning nutqda kam qo‘llanishini ko‘rsatadi [8; 22]; 4-sinf o‘quvchisi uchun esa bunday so‘zlarning ko‘pi hatto tushunilmaydi. Demak, ular avval anglanishi, so‘ng nutqqa kiritilishi kerak – bu ikki vazifani izohli lug‘atsiz hal qilish qiyin.

Lug‘at izohi bilan ishlash: «karchlamoq» so‘zi misolida.

I qismning 19-darsidagi «Mehribon» matni (138-mashq) egalik qo‘shimchalarini qo‘yishga mo‘ljallangan. Matn shunday boshlanadi (qo‘shimchalar tiklandi): «Salimjonning dadasi kechqurun katta qovun so‘ydi-da, bir kosasini onasining oldiga qo‘ydi. Qolganlarini laganga karchladi» [9]. Shu ikki gapning o‘zida o‘quvchi uchun uchta qiyin so‘z bor: «so‘ymoq» (bu yerda – qovunni kesib ochmoq), «kosa» (matn mazmuniga ko‘ra – qovunning kosaga o‘xshash pallasi) va «karchlamoq».

«Karchladi» so‘zining ma’nosini lug‘atdan topish uchun o‘quvchi bir necha amalni bajarishi kerak. Avval so‘zning bosh shakli tiklanadi: karchladi → karchlamoq. So‘ng yozilishdagi variant hisobga olinadi: elektron izohli lug‘atda «karch», «karchla» bilan birga «karj», «karjla» shakllari ham bor [10]. «Karjla» maqolasida fe’l «Karj qilib kesmoq» deb izohlanib, «karj» so‘zining birinchi ma’nosiga havola qilingan, ikkinchi

ma'no esa «maxs.» belgisi bilan do'ppi haqida berilgan [10]. Demak, o'quvchi havola bo'yicha boshqa maqolaga o'tishi, ikki ma'nodan matnga mosini tanlashi va topilgan ma'noni yana matnga qaytarishi lozim. Kattalar uchun oddiy bu ish 9–10 yoshli o'quvchiga o'qituvchi ko'magisiz qiyinlik qiladi.

Tanish so'zlarning izohida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. «Qovun» so'zi elektron lug'atda «Qovoqdoshlar oilasiga mansub, hosili yirik va shirin bir yillik poliz o'simligi va uning hosili» deb izohlangan [10]. Izoh ilmiy jihatdan to'g'ri, lekin undagi «qovoqdoshlar oilasi», «poliz o'simligi» birikmalari izohlanayotgan so'zning o'zidan qiyinroq. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchisiga mo'ljallangan izoh izohlanayotgan so'zdan soddaroq so'zlar bilan, havolasiz, bir qadamda tushuniladigan qilib berilishi, ko'p ma'noli so'zda darslik matnidagi ma'no ajratib ko'rsatilishi, misollar esa bolaga tanish vaziyatdan olinishi kerak, deb hisoblaymiz. «q.», «maxs.» kabi shartli belgilar ishlatilsa, ular lug'at boshida sodda tilda tushuntirilishi lozim. Masalan, «karchlamoq» so'zini «qovun yoki tarvuzni tilim-tilim qilib kesmoq» deb izohlash 4-sinf o'quvchisi uchun ancha tushunarli bo'ladi.

Izohli lug'atning o'quvchi nutqini shakllantirishdagi ahamiyati.

Tahlil natijalari izohli lug'atning o'quvchi nutqini shakllantirishdagi o'rnini bir necha jihatdan ko'rsatadi (3-jadval). Avvalo, lug'at so'z ma'nosini aniq anglashni ta'minlaydi, matnni tushunish va unga tayangan og'zaki javob, bayon, insho esa shundan boshlanadi. Ma'nodoshlar orqali berilgan izoh nutqning aniqligiga xizmat qiladi: o'quvchi fikrini ifodalash uchun eng o'rinli so'zni tanlashga o'rganadi [6]. Iboralar va ko'chma ma'nolarning izohi nutqni obrazli va ta'sirchan qiladi [7]. Lug'at maqolasidagi misollar so'zning qaysi so'zlar bilan birikishini va gapda qanday qo'llanishini ko'rsatadi [2], bu esa yangi so'zni to'g'ri ishlatishga yordam beradi. Nihoyat, lug'at bilan muntazam ishlash o'quvchida notanish so'zni mustaqil aniqlash ko'nikmasini hosil qiladi; bu ko'nikma darslikdan tashqari kitob o'qishda ham asqotadi.

3-jadval

Izohli lug'atning o'quvchi nutqini shakllantirishdagi vazifalari

Lug'atning vazifasi	**Nutqning qaysi sifatiga xizmat qiladi**	**Darslikdagi tayanch (qism, dars yoki mashq)**
So'z ma'nosini aniqlash	to'g'rilik, matnni tushunish	«ma'nosini tushuntiring» topshiriqlari (I, 108; IV, 40)
Ma'nodosh orqali izohlash	aniqlik, o'rinli so'z tanlash	ma'nodosh so'zlar (I, 9–10-darslar; II, 85)

Lug'atning vazifasi	Nutqning qaysi sifatiga xizmat qiladi	Darslikdagi tayanch (qism, dars yoki mashq)
Ibora va ko'chma ma'noni izohlash	ifodalilik, obrazlilik	o'z va ko'chma ma'nodagi sifatlar (III, 7–8-mavzular); iboralar (IV, 40)
Qo'llanish misolini berish	so'zni to'g'ri qo'llash	gap tuzish topshiriqlari (III, 25)
Mustaqil izlashga o'rgatish	mustaqillik, nutq boyligi	lug'atga havola qilingan yagona topshiriq (I, 14)

Jadvaldan ko'rinadiki, darslikda izohli lug'atning har bir vazifasi uchun mavzu yoki topshiriq shaklidagi tayanch bor, faqat ular lug'at bilan bog'lanmagan. Boshqacha aytganda, izohli lug'atni darsga olib kirish uchun darslikni o'zgartirish shart emas: mavjud topshiriqlarni lug'atga murojaat bilan to'ldirishning o'zi katta imkoniyat beradi.

Izohli lug'at bilan ishlash bosqichlari.

Lug'at bilan ishlash natija berishi uchun u tartibli tashkil etilishi kerak. Darslik tahlili va yuqoridagi misollar asosida biz izohli lug'at bilan ishlashning olti bosqichini taklif qilamiz (4-jadval).

4-jadval

Izohli lug'at bilan ishlash bosqichlari

Bosqich	O'quvchi faoliyati	Topshiriq namunasi (darslik materialida)
1. Payqash	Matnni o'qib, ma'nosi noaniq so'zlarni belgilaydi	«Mehribon» matnidagi so'zlarni «bilaman – eshitganman – bilmayman» belgilari bilan ajratish
2. Kontekstdan taxmin	Gapdagi ishoralarga tayanib ma'noni taxmin qiladi	«Qolganlarini laganga karchladi»: nima karchlandi? qayerga qo'yildi? Taxminingni ayt
3. Lug'atga murojaat	So'zni bosh shaklga keltirib topadi, matnga mos ma'noni tanlaydi	karchladi → karchlamoq → karj; «olma» so'zining matndagi ma'nosini tanlash (I, 87)
4. Izohni o'zlashtirish	Izohni o'z so'zi bilan aytadi, taxmini bilan solishtiradi	«Taxminim – lug'at izohi» jadvalini to'ldirish; mirob – suvchi, najjor – duradgor juftliklari

Bosqich	O‘quvchi faoliyati	Topshiriq namunasi (darslik materialida)
5. Qo‘llash	So‘zni og‘zaki va yozma gapda ishlatadi	Yangi so‘z bilan gap tuzish; so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llab gap tuzish (III, 25)
6. Mustahkamlash	So‘zni lug‘at daftariga yozib, keyingi darslarda qo‘llaydi	Daftar ustunlari: so‘z – darslikdagi gap – izoh – o‘z gapim

Dastlabki to‘rt bosqich so‘zni tushunishga, keyingi ikkitasi uni o‘quvchi nutqiga kiritishga xizmat qiladi. Kontekstdan taxmin lug‘atga murojaatdan oldin qo‘yilgani bejiz emas: o‘quvchi lug‘atga o‘z farazi bilan borsa, izohni ko‘r-ko‘rona ko‘chirmaydi, uni taxmini bilan solishtiradi. To‘rtinchi bosqichda izohni o‘z so‘zi bilan aytish talab qilinadi, beshinchi va oltinchi bosqichlar esa so‘z bilan qayta-qayta uchrashishni ta’minlaydi.

Bu bosqichlar alohida dars talab qilmaydi. Masalan, «Mehribon» matni bilan ishlashda egalik qo‘shimchalarini qo‘yishdan oldin 3–4 daqiqa «so‘ydi», «kosa», «karchladi» so‘zlari ustida ishlash mumkin: o‘quvchilar taxminini aytadi, lug‘atdan tekshiradi, so‘ng so‘zni o‘z gapida qo‘llaydi. Shunda grammatik topshiriq ham ongliroq bajariladi, M. Djakbarova ta’kidlagan nutq o‘stirish va til fanining boshqa bo‘limlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ham amalda ta’minlanadi [5; 328]. Bosqichlarning samaradorligini tajriba-sinovda tekshirish tadqiqotning keyingi vazifasidir.

Yosh xususiyatlari, an’anaviy va raqamli lug‘atlar.

Lug‘at bilan ishlashda 9–10 yoshli o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Avvalo, ish me’yorlanishi kerak: bir darsda ikki-uch so‘z bilan to‘liq ishlashni ko‘p so‘zni yuzaki izohlashdan afzal deb bilamiz. Izoh ko‘rgazmali tayanch – predmet, rasm yoki harakat bilan mustahkamlansa, yaxshiroq esda qoladi (masalan, qovun qanday karchlanishini ko‘rsatish); K. Saidova ham bolalar lug‘atlarining rasm va grafik vositalarga ko‘proq tayanishini qayd etadi [8; 19–20]. O‘qituvchi ko‘magi esa bosqichma-bosqich kamaytiriladi: so‘z avval butun sinf bilan, keyin juftlikda, so‘ng mustaqil izlanadi.

Raqamli lug‘atlar so‘zni tez topish imkonini beradi, ammo ulardagi izohlar ko‘pincha kattalarga mo‘ljallangan. Bundan tashqari, Izoh.uz saytida asosiy izoh bilan bir qatorda foydalanuvchilar qo‘shgan izohlar ham joylashtiriladi [10], ya’ni ma’lumotning ishonchliligini o‘qituvchi nazorat qilishi lozim. Shuning uchun 4-sinfda elektron lug‘atdan o‘qituvchi rahbarligida, sinf bilan birgalikda foydalanish,

o‘quvchining mustaqil ishida esa bosma bolalar lug‘atiga tayanish maqsadga muvofiq. Bosma lug‘at, o‘z navbatida, alifbo tartibida so‘z izlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Izohli lug‘at boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nutqini shakllantirishning zaruriy vositasidir: u so‘z ma’nosini anglash, nutqda aniq va o‘rinli so‘z tanlash, iboralarni to‘g‘ri tushunish va notanish so‘zni mustaqil aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. 2023-yilgi 4-sinf «Ona tili» darsligida bu vositaga tayanch yetarli emas: to‘rt qismda lug‘atcha va so‘zlarga sahifa osti izohi yo‘q, 502 ta mashqdan birortasi o‘quvchini izohli lug‘atga yo‘naltirmaydi, ma’no tushuntirishni so‘ragan topshiriqlarda esa ma’noni aniqlash vositasi ko‘rsatilmagan.

3. Darslikdagi izoh talab qiladigan so‘zlar yetti guruhni tashkil etadi va har biri o‘ziga mos lug‘atni talab qiladi. Umumiy izohli lug‘at maqolasi bilan ishlash 4-sinf o‘quvchisi uchun murakkab bo‘lgani sababli bolalarga mo‘ljallangan sodda izohli o‘quv lug‘atlari zarur.

4. Lug‘at bilan ishlash payqashdan mustahkamlashgacha bo‘lgan bosqichlarda tashkil etilsa, yangi so‘zning o‘quvchi nutqiga o‘tish imkoniyati ortadi, deb hisoblaymiz; bu farazni tajriba-sinovda tekshirish lozim.

Amaliy tavsiyalar. O‘qituvchilarga har bir matndan ikki-uch so‘zni oldindan tanlab, lug‘atdan tekshirib qo‘yish; «ma’nosini tushuntiring» topshirig‘ini «taxmin qil – lug‘atdan tekshir – o‘z so‘zing bilan ayt – gap tuz» tartibida bajartirish; o‘quvchilarda shaxsiy lug‘at daftarini yuritish; sinfda bolalar izohli lug‘ati, sinonimlar va frazeologik lug‘atlardan iborat kichik lug‘at fondini tashkil etish tavsiya etiladi. Darslik mualliflariga har bir qism oxirida qisqa izohli lug‘atcha berish hamda o‘quvchini lug‘atga yo‘naltiruvchi topshiriqlar kiritish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6084-son Farmoni. URL: https://lex.uz/uz/docs/5058351 (murojaat sanasi: 15.11.2026).

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.

3. Mahmudov N. So‘z sandiqchasi: o‘zbek tilining izohli lug‘atchasi (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 216 b.

4. Львов М.Р., Горецкий В.Г., Сосновская О.В. Методика преподавания русского языка в начальных классах. – 3-е изд., стер. – М.: Академия, 2007. – 464 с.

5. Djakbarova M.I. Boshlang'ich ta'limda ona tili fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish lingvodidaktik muammo sifatida // «Ta'lim va taraqqiyot» ilmiy-uslubiy jurnali. – B. 326–334. URL: https://journal.namspi.uz/articles_public_file/84204f2dad04e23147120d466c176a77.pdf (murojaat sanasi: 15.11.2026).

6. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.

7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 378 b.

8. Saidova K.H. O'zbek tilining nofaol so'zlar o'quv lug'atini tuzishning leksikografik asoslari: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Navoiy, 2026. URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10005546/aUxEFJrQEgth0YA.pdf (murojaat sanasi: 15.11.2026).

9. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I–IV qismlar. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

10. Izoh.uz – o'zbek tilining izohli lug'ati [Elektron resurs]. URL: https://izoh.uz